

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH

### Niyazmetova Nargiza

*Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'limga matematika va uni o'qitish metodikasi kafedrasiga o'qituvchisi  
Solijonova Niluzar .*

*Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'limga matematika va uni o'qitish metodikasi kafedrasiga o'qituvchisi  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

### Xudayberganova Bibinur

*Nizomiy Nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'limga matematika va uni o'qitish metodikasi kafedrasiga o'qituvchisi  
yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Boshlang'ich sinf o'quvchising matematika faniga bo'lgan qiziqishlari yoritilib ,kelajak avlodimiz jajji bolajonlarimizning matematika faniga qiziqishini oshirishni ,tafakkuri shakillanishini rivojlantirish yoritib berilgan .*

**Kalit so'zlar:** *Boshlang'ich sinf o'quvchisi, matematik bilim, tafakkur, sonlar, arifmetik amallar.*

Maktabga ilk qadamini qo'ygan bolajonlar kuchli xayajon bilan qiziqish bilan keladilar. Ularning jajji qo'lchalaridan ushlab hayot yo'lida qoqlimasligi uchun pedagog ustozlar jon kuyduradilar. Birlari tilni o'rgatsa, birlari matematika olamini , yana birlari hayot uchun kerakli bo'lgan saboqlarni, yana birlari dunyo sirlarini o'rgatadi . Jajji bolajon dunyo bilimlarini o'rgana boshlaydi. Ularning tafakkur olami ham shakillana boshlaydi. Matematika olamiga sayohat qilishadi. Bu sayohat umrlari davomida qo'l keladi.

Aytishadiku "Matematika fanlar ichra shox ,uning sirlaridan bo'lingiz ogoh". Matematika olamini o'rganish juda ham zavqli, hayot uchun kerakli. Matematika faniga qiziqish uyg'ota olish esa albatta pedagog ustozlarimizning mahoratlariga bog'liq. Agarki pedagog bu fanni o'rgatayotganda bilim va malakasi, mahorati bo'lmasa fanga qiziqtira olmaydi . Pedagog sanash orqali turli hil misollar va masalalarni o'rgatadi. Bu masala yoki misollar hayotga tayyorlash, sekin asta hayot yo'liga kirib borish ularning dunyolarini kengayishiga tayyorlashga qaratilib, darsliklarda yoritilib beriladi . Bolajonlar 1-sinfda ikki sonini o'tishlari bilanoq masalalar o'zlarini tuzib og'zaki ishlay boshlaydilar. Masalan bolajonlar o'rgangan misollarini uylariga kelib ota-onalariga qiziqish bilan aytadilar. Masalan ikki dona olma Salimada bor edi keyin Farkod kelib bir dona olamisini olib qo'ydi endi nechta



olma qoldi? deya savol berishadi .Bundan ko'rinib turibdiki ular sekin asta sanab o'zлari hisob qila boshlaydilar. 1-sinfdan keyingi sinflarada ularning matematik ko'nikmalari rivojlanib boradi. Arifmetik amallarni tog'ri bajarib boshlaydilar. Matematik tafakkurlari rivojlanib boradi. Tafakkur so'zi arabcha so'zdan olingen bo'lib fikir yuritish, o'yash , fikrlash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Tafakkur haqida Alisher Navoiy bobomizning bir gaplari borki "Har ishni qildi odamzod, tafakkur birla qildi oni bunyod".

I-IV sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifasi bo'lgan ta'lim - tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursini qanday darajada tayyorgarligi borligiga, bolalar bog`chalarining tayyorlov guruhlari dasturi orqali hamda uyda mustaqil matematikani o`rganib qanday bilimlarga egaligiga bog`liq.

Shuning uchun 1-sinfga kelganlarning bilimlarini aniqlash, sinf o`quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya`ni past bilimga ega bo'lgan o`quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o`quvchilar yetkazib olish vazifasi turadi. O`qituvchi quyidagi sistema bilano`quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo'shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni iayirishni biladi?.
4. >, <, □ belgilarin ishlataoladimi?
5. Noma'lumlar bilan berilgan qo'shish va ayirishda bu noma'lumlarni topaoladimi?
6. Qaysi figuralarning nomlarini biladi va chiza oladi?
7. Nechagacha sonlarni yozaoladi?
8. Unga, chapga, kam, ko`p, og`ir, engil, teng kabi tushunchalarni farqlay oladimi?
9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og`irlik o`lchov birliklari bilan muomala qilaoladimi?

Bolalarni tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqlash kabi aqliy operatsiyalarni bajaris hmalakalarini shakllantirishga qaratilgan bo`lishi kerak. Bunday ishlar o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarni o`zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi.

Bolajonlarimiz muktabga birinchi qadam bosishganda birinchi bo'lib , Matematika fanidan nuqta ,chiziqcha ,egri chiziqcha,uzuqchiziqlar bilan mashq qilishadi, keyin sonlarni yozishni boshlaydilar .Sonlar-matematikqning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib ,qadimda ibtidoiy jamolarda narsalarni sanashda





ishlatilgan shundan boshlab sanash ya'ni sanoq ishlatilgan . Arifmetik amallar bu – “+”, “-”, “×”, “:” amallari orqali matematika fanini o'rganib boriladi.Bolalarda matematikaga qiziqtirish uchun pedagoglarimiz turli xil metodlardan foydalanib ,o'yin metodlari ,ko'rgazmali metodlar ,multimedia vositalaridan foydalanib ham matematik tafakkurini oshirishga yordam beradi.- Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlii, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev

Xulosa qilib aytish joyizki o'sib kelayotgan yosh avlod bilimga chanqoqdir,matematika fanini qanchalik qiziqarli qilib o'tib bola qalbiga matematikaga bo'lgan muhabbatni oshirish berish ham pedagoglarning qo'lida. Bolajonlarimizni matematik tafakkurini oshirish yildan yilga yangidan yangi metodlar va multimedia vositalari va ko'rgazmali vositalar takomillashayabdi. Biz pedagoglar esa uni o'rinali va samarali ishlatishni bilishimiz darkor.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.azkurs.org ,Sof.uz

Matematika o'qitish metodikasi

M.E.Jumayev. Z.G'.Tadjiyeva Toshkent -2005

"FAN VA TEXNALOGIYA" nashriyoti

